



TOPONIMLARNING GRAMMATIK QURILISHI VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI RIVOJI

Ishtemirova Jasmina Abdimalik qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi toponimlarning grammatik qurilishi, ularning shakllanish modeli morfologik tuzilishi va tarixiy rivojlanish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Toponimlarning strukturasida uchraydigan affikslar, so'z yasovchi vositalar, qadimiy turkiy til qatlamiga mansub birliklari hamda fors-tojik unsurlarining o'рни atroflicha ko'rib chiqiladi. Shuningdek, toponimlarning rivojlanish jarayoniga ijtimoiy, tarixiy va lingvistik omillarning ta'siri yoritiladi. Toponimlarning lingvistik tavsifi va morfematik sath xususida fikrlar jamlangan.

Kalit so'z: onomastika, toponim, affiks, gidronomiya, oronimiya, urbanomiya

Nomlar ularning turlari nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limiga onomastika (lotincha onoma – nom so'zidan olingan) deyiladi. Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt tarixi, madaniyati, yashash joyi, qadimiy urf-odatlar va etnik taraqqiyotini aks ettiruvchi lingvistik birlik sifatida alohida o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida toponimika mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, uni o'rganish jarayonida fonetik, leksik, tarixiy, ayniqsa grammatik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir nechta turga bo'linadi. Bular: gidronomiya (yun, gidro-suv) ya'ni, daryolar, ko'llar, sharsharalar nomi; oronimiya (yun oros-tog'), ya'ni yer yuzasining relyef shakllari, tog'lar, qirlar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos-uy), urbanomiya (lot urbos-shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari.

O'zbek toponimlari tarkibida qadimiy turkiy affikslar, arabcha va forscha komponentlar, shuningdek, o'zbek tilining o'ziga xos yasash modellari keng qo'llangan bo'lib, ular geografik joylarning tarixiy-etnik manzarasini ochib beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayyan suffiks (affikslar) va so'zlar faqat yoki aksar toponimlar yaratilishiga ixtisoslashgan bo'ladi. Nemis tilshunosi V. Shperberg, rus toponimisti V. A. Nikonov tadqiqotlari roman va slavyan toponimlarida ko'plik shakli juda keng tarqalganini ko'rsatadi. Haqiqatdan ham rus toponimlarida ko'plik affiksi ko'plab ishlatiladi. Masalan, ko'prik so'ziga biron sifat qo'shilishi kerak, chunki Beshko'prik, G'ishtko'pri, Ko'prikboshi va hokazo. E. M. Mirzayev toponimikani fanlar tizimidagi o'rniga baho berib, bu masalada olimlar orasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi va u hozirga qadar uzil-kesil hal bo'lmaganligini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ta'kidlagan. Toponimik axborotni ishonchli manba sifatida, ilk bor milodiy I asrda ispan antik olimi Pamponiy Mela o'zining "Xorografiya" asarida ilmiy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilgan. Masalan, 982-987 yillarda, fors tojik tilida no'malum muallif tomonidan yozilgan "Hudud ul-olam" tarixiy-geografik asarida Movauraunnahr viloyatlari, shaharlari, tog'lari, daryolari va ularning nomlari ayniqsa, hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar topish mumkin. Turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida toponimlarda ko'plik qo'shimchalari u qadar keng tarqalgan emas, o'zbek toponimlari tarkibida bir necha ko'plik affiksini uchratish mumkin. Biz ulardan har biriga to'xtalib o'tamiz.

-lar affiksi

Professor A. G'ulomov bu affiksni so'z yasovchi morfemalar qatoriga kiritmaydi. Bu qo'shimcha no'malum ko'plikni, hurmatni, biron fikrni ta'kidlashni, mavhum tushunchani konkretlashtirishni, umumiylikni bildiradi. Mazkur affiks Oylarxon, Qizlaroy kabi kishi ismlari tarkibida ham uchraydi hamda bu o'rinda ism yasash funktsiyasining o'taydi. U so'z mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq toponimiyada tamoman boshqa manzarani ko'ramiz: -lar affiksi ko'plab toponim yasaydigan topoformant hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, -lar affiksi faqat kishilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar yasaydi: arablar, beklar, boylar, zargarlar, moxovlar, shayxlar va hokazo.

-on affiksi

Bu tojikcha affiks O'zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir sotsial guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga — Arabon (arablar), Qirg'izon (qirg'izlar),

O'zbekon (o'zbeklar); 2) qandaydir urug'-aymoqqa — Mang'iton (mang'itlar), Minggon (ming urug'idan bo'lgan kishilar); 3) ma'lum tabaqaga - Mirzoyon (kotiblar), Tarxonon (oliq-soliqdan ozod qilinganlar); 4) hunar-kasbga — Bo'yrafon (bo'yra to'quvchilar), Kosagaron (kosa ustalari), So'zangaron (ig'na ustalari); 5) diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi.

-ot (t) affiksi

Toponim yasovchi bu affiks ikki xil yo'l bilan paydo bo'lgan: biri arabcha bo'lsa, ikkinchisi sug'diychadir. Bundan tashqari, -t qadimgi turkiy tilda va mo'g'ul tilida ham ko'plik o'nida keladi. Zahiriddin Muhammad Bobur birgina toponimni ikki shaklda yozgan: Badaxshon — Badaxshonot, Lamg'on — Lamg'onot, Xuroson — Xurosonot, Hinduston — Hindustonot. Shuningdek, Erondagi Gilon va Garmser o'lkalari Gilonot va Garmserot shakllarida yozib kelingani ma'lum. Akademik V.V. Bartold Badaxshon tarixi to'g'risida so'z yuritarkan, bu tog'li o'lka tarixiy manbalarda arabcha ko'plik shaklida Badaxshonot tarzida ham uchraydi, degan edi. Haqiqat ham shunday. Yuqorida keltirilgan misollarda arabcha -ot affiksi ruscha -kina (Kievkina, Smolenkina) qo'shimchasini eslatadi va shu joyning tevarak atrofni ham bildiradi. Chunonchi, Bobur Hindistonni Hindistonot shaklida yozganda, bundan oldin albatta «tomam» (butun) so'zini ishlatadi va binobarin, «tomam Hindustonot» deganda, butun Hindiston va uning atrofni tushunadi. Dunyoda eng yirik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

toponimistlardan biri atoqli geografik E.M.Mirzayev(1908-1998) hisoblanib, olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarning, jumladan, mahalliy geografik atamalar haqida ko'plab qimmatli asarlar,maqolalar,lug'atlar yaratdi.Masalan,4 mingga yaqin xalq geografik atamalarni o'z ichiga olgan lug'ati jahon toponimistlari va tilshunoslarining e'tiborini tortdi.Bu asar 1999-yilda to'ldirilib,2-jildda qayta nashr etildi.Toponimlarni o'rganishda yana shunday bebaho tarixiy-lingvistik manbalardan biri bu XI asrda yashab ijod qilgan buyuk turkiy olim Mahmud

Qoshg'ariy"Devon" orqali o'z davrida mavjud bo'lgan turkiy qabilalar,ularning yashash joylari,madaniyati va tili haqida keng qamrovli ma'lumot beradi.Ayniqsa,unda tilga olingan 200 ga yaqin turkiy toponimlar,ko'plab etnonimlar,ko'plab geografik atamalarni aytib beradi.

O'zbek toponimikasining grammatik qurilishi ko'p qatlamli va davriy-lingvistik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab tizimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, joy nomlari faqat geografik obyektlar identifikatori bo'lib qolmay, balki xalqning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi, migratsiya jarayonlari, diniy-madaniy qadriyatlari va siyosiy-huquqiy tuzumlar o'zgarishining lingvistik izlarini ham o'zida mujassam etadi.O'rta asrlarda fors-tojik tili ta'siri ostida -obod, -zor, -kand/-kent kabi affikslar keng qo'llanib, toponimlarning tarkibiy-sintaktik tuzilishida yangi funksional yasaliş modellari vujudga kelgan. Islom madaniyatining kirib kelishi esa diniy-atamalarning toponimlashuvi, ya'ni sakral nomlar tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi.XX asrning siyosiy-iqtisodiy jarayonlari, xususan, sovet davriga xos industrial va agrar atamalarning toponimiyaga kirib kelishi natijasida Yangi-, Paxta-, G'alla- kabi komponentli yangi grammatik modellarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Mustaqillik yillarida esa toponimlarning milliy-madaniy identifikatsiyasini tiklash, tarixiy nomlarni restavratsiya qilish va fonetik-me'yoriy moslashtirish jarayonlari jadallashdi. Bu esa toponimik tizimning grammatik tuzilishida normativlikning kuchayishi, arxaiik shakllarning qayta tiklanishi hamda milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi yangi modellarning shakllanishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda,o'zbek toponimlarining grammatik rivoji tilning ichki qonuniyatlari, etimologik jarayonlari, fonetik-morfologik moslashuvlari va tashqi -sotsiolingvistik, etnomadaniy hamda siyosiy omillar ta'sirida takomillashib borayotgan ochiq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Toponimlar tizimining hozirgi holati, bir tomondan, tarixiy qatlamlarning barqarorligini, ikkinchi tomondan, zamonaviy til jarayonlari va me'yorlashtirish ishlarining jonli davom etayotganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, toponimlarning grammatik qurilishini izchil o'rganish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnografik va madaniy tadqiqotlar uchun ham muhim manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.





1.S.Qorayev “Toponimika” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti
Toshkent-2006

2.Q.Hakimov Toponimika “Mumtoz so‘z” 2016

3.Madrahimov Zohid Sharofovich Tarixiy toponimika(o‘quv qo‘llanma)

4.Mahmud Qoshg‘ariy”Devonu lug‘otit-turk”I tom S.M.Mutallibov tarjimasi
Toshkent,1981-yil.

5.Mahmud Qoshg‘ariy”Devonu lug‘atit-turk”II tom S.M.Mutalliboyev Toshkent,1963.

